

**TOVAR OMBORI SHARTNOMASIDA OMBOR
HUJJATLARINI FUQAROLIK MUOMALASIGA KIRITISH
MASALALARI**

Nortojoyeva Iroda To'liqin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

irodanortojoyeva2@gmail.com

Annotasiya. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi, O'zbekiston Respublikasida ham bugungi kunga qadar fuqarolik huquqiy munosabatlari ancha taraqqiy etib kelmoqda. Ularning rivojlanishida esa, albatta, shartnomaviy munosabatlar alohida o'rin tutadi. Biz ushbu ilmiy ishdan tovar ombori shartnomasining tub mohiyatini, uning fuqarolik huquqida tutgan o'rnini, iste'molda qanchalik keng tarqalganligini nafaqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, balki, xorijiy mamlakatlar huquq tizimida mavjud bo'lgan tovar ombori shartnomasiga oid bir qator o'ziga xos jihatlarni va yangiliklarni o'rganishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: omonat saqlash, tovar ombori, saqlovchi, tadbirkorlik faoliyati, shartnoma, majburiyatlar, ombor hujatlari, javobgarlik.

**ISSUES OF INCLUSION OF WAREHOUSE DOCUMENTS IN
THE CIVIL PROCEDURE IN THE WAREHOUSE
AGREEMENT**

Nortojieva Iroda Tulkin kizi

3rd year student of Private Law Faculty of
Tashkent State University of Law

irodanortojiyeva2@gmail.com

Abstract. As in all countries, civil legal relations in the Republic of Uzbekistan have been developing to this day. In their development, of course, contractual relations have a special place. From this scientific work, we learned the fundamental nature of the warehouse contract, its place in civil law, how widespread it is in consumption, not only in the legislation of the Republic of Uzbekistan, but also in a number of specifics related to the warehouse contract existing in the legal system of foreign countries. we can learn features and news.

Key words: deposit, warehouse, custodian, business activity, contract, obligations, warehouse documents, responsibility.

Barchamizga ma'lumki, azal-azaldan qaysi mamlakatda bozor iqtisodiyoti rivojlangan bo'lsa, albatta, o'sha davlat aholisi to'kin-sochinlikda hayot kechirgan. Davlat boshliqlari o'zlarining oldilariga siyosatdan ham ko'ra, avvalo, iqtisodiyotni rivojlantirishning samarali yo'llarini topish hamda mavjud iqtisodiy sohalarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlarini ko'rishni ustuvor vazifa sifatida qo'yishgan. Shu sababli ham, bir qator mamlakatlar tadbirkorlik faoliyatini yanada takomillashtirishni iqtisodiyotni rivojlantirishning, davlatga ko'p foyda olib kelishning bir yo'li sifatida ko'rishdi va bu sohada qator islohotlarni amalga oshirdilar. Yuqorida biz o'rganayotgan tovarlarni omborda saqlashdan ham tadbirkorlik faoliyatining bir turi sifatida bugungi kunda juda ko'plab fuqarolik huquqi subyektlari foydalanib kelmoqdalar. Ya'ni bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, mamlakatda ko'plab tadbirkorlik tuzilmalarining, shu jumladan, tovarni omborda saqlashning ham vujudga kelishini taqozo etdi.

Tovar omborida omonat saqlash tushunchasi hamda uning hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida tutgan o'rni.

Tovar ombori tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, o'zining tijorat faoliyati yo'nalishi sifatida ashyolarni saqlash bo'yicha xizmatlar majmuyini ko'rsatuvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan subyekt hisoblanadi. Tovarni omborda saqlash uchun topshiruvchi hamda tovar ombori xizmatini ko'rsatuvchi tashkilot o'rtasida fuqarolik huquqiy shartnoma asosida omonat saqlash amalga oshiriladi.¹ Ya'ni, tovarni omborda saqlash tadbirkorlik faoliyati asosida, daromad olish maqsadida va yuridik shaxs sifatida tashkil etiladi. Albatta, bu xizmat ham shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shu o'rinda, tovar ombori umumiy va maxsus foydalanishdagi tovar ombori sifatida faoliyat yuritishini ham alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Xususan, O'zbekiston

¹ Fuqarolik huquqi (yuridik texnikumlar uchun darslik) / Mualliflar jamoasi. O.Oqyulov, N.Imomov, M.Baratov, va boshqalar.-T.:TDYU, 2021.- 151-152-betlar

Respublikasi Fuqarolik kodeksining 902-moddasiga muvofiq, umumiy foydalanishdagi omborlar chegaralangan doiradagi shaxslardan tovar ombori tovarlarni saqlash uchun qabul qilishi mumkin bo'lgan omborlar jumlasiga kiritilmagan bo'lishi kerakligi haqida aytib o'tilgan bo'lib, umumiy foydalanishdagi omborda omonat saqlash uchun tuziladigan shartnoma ommaviy shartnoma ekanligi to'g'risidagi qoida keltirib o'tilgan. Ya'ni bu turdagi shartnomani tuzishda fuqarolarga ma'lum bir imtiyozlar berilmaydi hamda uni tuzuvchi (saqlovchi) kim bilan tuzishni alohida tanlov asosida tanlay olmaydi. Ushbu shartnoma tuzilayotganda, albatta, tomonlar tovarning tasnifi, uning xossalari, haq to'lash tartibi hamda saqlash muddatlari kabi bir qator masalalar yuzasidan kelishib olishlari lozim hisoblanadi. Agar tovar omborda saqlash uchun qabul qilinsa, ularning qabul qilinganligi tasdiqlanib quyidagi hujjatlar berilishi mumkin:

1. Ikki qismli ombor guvohnomasi;
2. Oddiy ombor guvohnomasi;
3. Ombor pattasi.

Yuridagi ombor hujjatlariga alohida-alohida ta'rif berib o'tadigan bo'lsak, ikki qismli ombor guvohnomasi ombor guvohnomasidan va garov guvohnomasidan (varrant) iborat bo'lib, ular bir-biridan ajratilishi mumkin. Ikki qismli ombor guvohnomasining har bir qismida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

Tovarni saqlash uchun qabul qilingan tovar omborining nomi va joylashgan manzili;

Ombor guvohnomasining ombor reysteri bo'yicha joriy nomeri;

Tovar saqlash uchun qabul qilib olingan tashkilot nomi yoki fuqaroning ismi, shuningdek tovar egasining joylashgan yeri (yashash joyi);

Saqlash uchun qabul qilingan tovarning nomi va miqdori- birliklar soni va tovar donalarining o'lchovi (og'irligi, hajmi);

Agar muddat belgilangan bo'lsa, tovar qancha muddatga qabul qilinganligi;

Omonat saqlaganlik uchun to'lanadigan haq miqdori, ularni to'lash tartibi;

Ombor guvohnomasi berilgan sana.

Va albatta, ikkala ombor hujjatida ham vakil shaxsning imzosi va tovar omborining muhri bo'lishi lozim.²

Tovar ombori huquq obyekti sifatida, ashyolarni saqlash ko'rinishidagi xizmatni ko'rsatadigan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ashyoviy majmuini o'zida namoyon etadi.³ Undan tashqari, tovarni omborda saqlash shartnomasining o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 903-moddasi qoidalariga ko'ra, konsensual shartnoma hisoblanib, ma'lum bir muddatga, haq evaziga saqlovchi va yuk topshiruvdi o'rtasida yozma ravishda tuziladi hamda muddat tugagunicha saqlovchi yukni asl holicha saqlash va muddat tugagandan keyin uni to'liq qaytarish majburiyatini oladi. Eng muhim tomoni shundan iboratki, tovar omborida ashyolar egasizlantirilmagan holda saqlanadi. Ya'ni, bir xil turdagi tovarlar boshqalari bilan almashtirilmaydi, bir yuk topshiruvchi tomonidan berilgan tovarlar boshqa yuk topshiruvchining tovarlari bilan

² O'-32 O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Ilmiy sharhlar. T.Z./O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-Toshkent: Baktria press, 2013. 88-89- betlar.

³ O'-32 O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Ilmiy sharhlar. T.Z./O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-Toshkent: Baktria press, 2013. 77-78- betlar.

adashtirib yuborilmaydi, garchi ular bir xil turdagi tovarlar bo'lsa ham. Ammo, istisno tariqasida tovarni egasizlantirib saqlash shartnomada ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, uni shartnoma shartlariga asosan saqlash mumkin hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, tovar omborida tovarlar belgilab qo'yilgan maxsus texnikaviy shartlar, standartlar, saqlash yo'riqnomalari va qoidalari hamda majburiy ahamiyatga ega bo'lgan normativ hujjatlarda ko'rsatilgan qoidalar asosida saqlanishi majburiy hisoblanadi. Saqlash uchun olinayotgan tovar esa shartnoma shartlariga muvofiq saqlovchining hisobidan tekshirib chiqilishi mumkin. Agarda vaqt o'tishi bilan shartnomada kelishilmagan yoki tabiiy buzilishning natijasi bo'lmagan holdagi tovarning shikastlanganligi aniqlansa, tovar omboriga bu haqda dalolatnoma tuzish va tovar egasini xabardor qilish majburiyati yuklanadi. Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, agar saqlovchi omonat topshiruvchi bilan tovar omborida omonat saqlash bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida omonatning xavfli xossalarini aniqlay olmagan, ya'ni uning tashqi ko'rinishidan bu holatlar ma'lum bo'lmagan bo'lib shartnomani tuzgan bo'lsa-yu, keyinchalik saqlovchiga bu holat ayon bo'lib qolsa, u albatta, topshirilgan tovarni saqlashdan bosh tortishi hamda shartnomani bekor qilish talabi bilan chiqishi mumkin. Demak, omonat saqlashning ushbu turi ham bugungi kunda keng tarqalgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi va boshqa bir qator qonun hujjatlari bilan ularning faoliyati mustahkamlab qo'yilgan.

Tovar ombori shartnomasining xorijiy mamlakatlar qonunchiligida turgan o'rni va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bo'lgani kabi, Rossiya Federatsiyasi huquq tizimida ham tovar ombori saqlash shartnomasining bir turi bo'lib, bu haqidagi qoidalar Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksida keltirib o'tilgan. Albatta, o'zimizda bo'lgani kabi bu sohaning rivojlanish tarixi bozor

iqtisodiyotining rivojlanishiga borib taqaladi. Huquqshunos olim Suxanov o'zining fuqarolik huquqiga oid kitoblarida xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida tovarlar ombori yuridik shaxs (yoki yakka tartibdagi tadbirkor) bo'lib, u o'zining tijorat faoliyati yo'nalishi shaklida tovarlarni saqlash bo'yicha bir qator xizmatlarni taqdim etadi. Omborda saqlash ommaviy shartnoma rejimida amalga oshiriladi, ya'ni u standart shartlar asosida murojaat qilgan har qanday tovar egasiga tovarlarni saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga majburligi haqidagi qoidani aytib o'tganlar.⁴

Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasida tovar omborida omonat saqlashdan farqli o'laroq, Rossiya Federatsiyasida davlat omborlari ham mavjud bo'lib, ulardan faqat qonun yoki boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar va afzalliklarni qo'lga kiritgan holda foydalanish mumkin bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, tovar saqlash uchun topshirilganda tovarga bo'lgan real mulk huquqi saqlovchiga o'tadi, yuk beruvchi esa talab qilish majburiyatini saqlab qoladi. Mulkka egalik va javobgarlik masalalari ham muhim sanalib, ularning milliy qonuchiligimizdan farqli tomoni, agar tovar tasodifan yo'qolsa yoki shikastlansa, xarajatlar yukning egasi tomonidan to'lanar ekan. Milliy qonunchiligimizda bo'lgani kabi Rossiya Federatsiyasida ham tovarlar egasizlantirilmagan holda saqlanar ekan. Bu borada huquqshunos olim Suxanovning fikri quyidagicha ifodalangan: “garchi omborda saqlash ko'pincha umumiy xususiyatlar bilan tavsiflangan narsalarni o'z ichiga olsa ham, ushbu turdagi xizmat uchun alohida saqlash nazarda tutiladi, ya'ni depersonalizatsiyasiz va bir xil tovarlar bilan aralashmasdan. Mos ravishda depersonalizatsiya bilan saqlash opsiyasi umumiy qoida sifatida shartnomada

⁴ Российское гражданское право: Учебник: В 2 т. Т. II: Обязательственное право / Отв. ред. Е.А. Суханов. – 2-е изд., стереотип. –М.: Статут, 2011. – 775с.

aniq ko'rsatilishi kerak. Bu tamoyil rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan omborlarni saqlash normalariga to'liq mos keladi".⁵

Ozarbayjon qonunchiligi asosida tovar omborida saqlash masalalarini tahlil qiladigan bo'lsak, unga ko'ra, ombor egasi saqlash uchun olingan tovarlarni qayta topshirishi shart deb aytib o'tilgan. Ozarbayjon Fuqarolik kodeksida keltirilgan qoidaga ko'ra, saqlovchi tovar-moddiy boyliklarning saqlanishi uchun javobgardir va saqlash shartnomasida nazarda tutilgan bunday tovarlarni tasarruf etishi mumkin ekanligi ta'kidlangan. Shu bilan bir qatorda, yuqorida tahlil qilgan huquq tizimlarimiz qatori Ozarbayjonda ham ombor egasi tovardagi o'zgartishlar to'g'risida dalolatnoma tuzishi hamda zudlik bilan yuk beruvchini xabardor qilishi shart hisoblanadi. Undan tashqari, Ozarbayjonda belgilangan normalarga muvofiq ombor egasi yuk beruvchiga tovarlarni vaqti-vaqti bilan tekshirishga ruxsat berishi majburiyatini olar ekan. Saqlanayotgan tovar uchun haq to'lash masalasiga keladigan bo'lsak, agar ko'rsatilgan saqlash xizmatlari uchun tovon to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa-yu kelishuv mavjud bo'lsa, ombor egasi yuk beruvchidan muntazam haq undirishi mumkin bo'ladi. Ozarbayjon Fuqarolik kodeksining 829-moddasida esa ombor egasi, shuningdek, bevosita bog'liq bo'lmagan barcha xarajatlarni yuk xizmatlari to'lovlari, bojxona to'lovlari, ta'mirlash xizmati kabi saqlash xizmatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa barcha to'lovlarni qoplashi mumkin ekan haqidagi qoida mustahkamlab qo'yilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida ham, Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjonda ham tovar ombori shartnomasi iqtisodiy soha rivojlanishi munosabati bilan eng keng tarqalgan shartnomalar sirasiga kiritilgan bo'lib, bugungi kunda fuqarolik muomalasida ko'p bora

⁵ Российское гражданское право: Учебник: В 2 т. Т. II: Обязательственное право / Отв. ред. Е.А. Суханов. – 2-е изд., стереотип. М.: Статут, 2011. – 769с.

tuziladigan hamda foydalaniladigan shartnomalardan bir desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar / References

1. Fuqarolik huquqi (yuridik texnikumlar uchun darslik) / Mualliflar jamoasi. O.Oqyulov, N.Imomov, M.Baratov, va boshqalar.-T.:TDYU, 2021.- 151-152-betlar
2. РОССИЙСКОЕ ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. УЧЕБНИК Том II Ответственный редактор заслуженный деятель науки РФ, доктор юридических наук, профессор Е.А. СУХАНОВ. 775, 769с
3. O'-32 O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Ilmiy sharhlar. T.Z./O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-Toshkent: Baktria press, 2013. 88-89, 77-78-betlar.
4. Иброхимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.
5. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nechaeva, E. V. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 414-425.
6. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.
7. O'G'Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(8), 109-113.
8. Azimjon, I. (2022). ZARAR–YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.
9. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. *Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19)*, 1(02), 23-26.

10. Akhorkulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(10), 129-134.